



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Saburova Qunduz
Erkebay qizi

Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: saburovaqunduzxon@gmail.ru
tel: +998907002730

ADABIY TA'LIMDA RASHOD NURI GUNTEKIN HAYOTI VA IJODINI O'RGATISHNING INNOVATSION USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiy ta'limda atoqli turk adibi Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi" asarini o'qitishning zamonaviy usullari tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, "Choliqushi" metod, raqamlashtirish, innovatsion texnologiya, idrok xaritasi.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВУ РАШОДА НУРИ ГУНТЕКИНА В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье анализируется современная методика преподавания "Чоликуши", как известного турецкого писателя Рашода Нури Гунтекина в литературном образовании.

Ключевые слова: образование, метод «Чоликуши», цифровизация, инновационные технологии, карта восприятия.

STUDYING THE LIFE AND WORK OF RASHAD NURI GUNTEKIN IN LITERARY EDUCATION

Annotation. This article analyzes modern methods of teaching the famous Turkish writer Rashad Nuri Guntekin's work "Cholikushi" in literary education.



Keywords: education, "Cholikushi" method, digitization, innovative technology, perceptual map.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda raqamli ta'limning mamlakatimiz ijtimoiy-ma'rifiy taraqqiyotida tutgan o'rni beqiyos bo'lib, bunda o'quvchilarning fanni o'zlashtirishlari bilan bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanlarni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning sinfdan tashqari mashg'ulotlarda hamda uy sharoitida yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, mustahkamlash va o'z ustida ishlash kabi qobiliyatlari yana ham rivojlanadi. Dars jarayonlarini raqamli texnologiyalar vositasida qiziqarli, jonli tarzda tashkil etish va interfaol topshiriqlar yuzasidan ishlash ko'nikmalarini oshirish o'quvchilarning sohaga irod kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Darhaqiqat, hozirda multimediyada dasturlari hamda elektron darsliklar turli ishlarni tez va qisqa fursatda amalga oshirishi, tasvirlarni aniq hamda maqsadli namoyish qila olishi, didaktik jihatdan ustunligi bilan bilimni axborotlashtirishning eng asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayon adabiy ta'limda ona tili va adabiyot fanlarini o'zlashtirish sohasida ham bir qancha imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Natijada, har bir talaba o'zi mustaqil ishlay oladi, kompyuter yordamida xatti-harakatlarini boshqaradi, topshiriqlarga yana qayta murojaat qila olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zotan, axborot texnologiyalari va multimediali o'rgatuvchi dasturlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi, qolaversa, psixologik jihatdan o'quvchining qiziqishini orttirishga, o'z bilimni erkin qo'llashga sharoit yaratib beradi. Shu bilan birga "adabiy asarda tasvirlanadigan qahramonlarning hayoti, adabiy taqdiri misolida o'quvchi (talaba)larga odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-estetik munosabatlar anglatiladi" [4: 34].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Umumiy o'rta ta'limda muayyan ijodkorning hayotiy faoliyati, badiiy ijod mahsullarini zamonaviy texnologiyalar asosida o'rgatish borasida bugungi adabiyot o'qitish metodikasi ulkan yutuqlarga erishmoqda. Bu borada Q.Yo'ldoshevning "Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari", Y.Abduvalitovning "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o'rganish", M.Abdullaeva, D.Djumabaevalarning "Jahon adabiyotini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish (9-sinf adabiyoti darsligi "Jahon adabiyoti" bo'limi misolida)" hamda Q.Husanboyevaning "Adabiyot o'qitish metodikasi" tadqiqotlarini alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Ammo jahon adabiyoti namunalarini o'rgatishga yo'naltirilgan tadqiqotlar, afsuski, hali to'lig'icha takomiliga yetganicha yo'q. Xususan, biz so'z yuritmoqchi bo'layotgan mashhur turk



adibi Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatish yuzasidan qilinadigan hozirgacha monografik tadqiqot ishlari olib borilmagan. Mazkur maqola ana shu yo'lda navbatdagi ilmiy-tahliliy qadam hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada so'z yuritilgan masalalarni tadqiq etishda o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasida erishilgan eng yaxshi natijalarga suyanildi. Ushbu kichik tadqiqot ishini yoritishda adabiy ta'limni raqamlashtirish, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanildi.


Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mamlakatimizda yangi maktab muhitini yaratish, shuningdek, maktabni raqamlashtirish yuzasidan jadal ishlar olib borilmoqda. Chunki elektron ta'lim mustaqil ravishda bilimga ega bo'lish, katta hajmdagi ma'lumotlar oqimi bo'ylab harakatlanish uchun ham ko'proq imkoniyatlar beradi. Bunda o'qituvchining roli bilim tarjimonidan o'quvchini eng individual ta'lim yo'li bo'ylab boshqaradigan murabbiy vazifasiga aylanadi. O'qituvchining "Men hamma narsani bilaman, men qilganimni qil" tamoyili o'rniga yangi – "Men buni o'zingiz qilishingizga yordam beraman" paradigmasi taklif etiladi. Negaki, zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasi – ma'lumotlarni tayyor holda berish va mashqlarning to'g'ri bajarilganligini tekshirish emas, balki o'quvchilarni kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda turli manbalardan izlab topish, tortishuvga sabab bo'lgan muammolarni hal etish, o'z pozitsiyasini himoya qilishga o'rgatishdir. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lishi va tegishli mashg'ulotlarda nafaqat zamonaviy metod va usullarni qo'llashi, balki kompyuter texnologiyalari sohasidagi so'nggi ishlanmalardan ham foydalanishi kerak. Bu esa darsning ko'rgazmaliligi va samaradorligini oshirishga bevosita yordam beradi.

Dars jarayonida sinfxonada mavjud bo'lgan katta ekrandan foydalanish va unda berilgan ma'lumotlar o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt davomida saqlanib qoladi. O'quvchilarning e'tibori ekranda berilayotgan ma'lumotlarda bo'lgani uchun boshqa narsalarga chalg'amaydi. Zamonaviy texnik vositalar yordamida takrorlanadigan matn va grafik materiallar yangi mavzuni og'zaki izohlash, mustahkamlash bosqichida mashq bajarish va talabalarning bilimlarini sinovdan o'tkazishda yordam beradi.

Umuman, ta'lim bosqichlarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini talabalarning qiziqishlari va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda turli xildagi o'quv topshiriqlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish o'qituvchilarning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga to'liq yetishishlariga va darsdan kuzatilgan natijalarga erishishlariga, natijada, yosh avlodning ma'naviy barkamol insonlar sifatida kamol topishiga yordam beradi. Zero "milliy mavqe har bir millatning axloqiy-estetik an'analari bilan belgilanadi. Asosan ayni shu an'analar har bir shaxsning kitobxonlik didi, uning hayotni obrazli idrok etish tizimi, o'zga adabiyotga beradigan bahosini shakllantiradi" [2: 26].

Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlari ta‘lim tizimida turli elektron resurslar faol qo‘llanmoqdaki, bunday manbalarga Mind Map yoki MindMeister, Storyboard, Mentimeter, Kahoot, Quizzez, LockDown kabilarni kiritish mumkin. Ular bevosita dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil qilishga yordam beradi. Masalan, Storyboard that dasturi har bir talabaga ijodkor bo‘lishga yordam beradi va bildirilgan fikrlarga vizual komponent taqdim etadi. Brovzerga asoslangan bu dastur hikoyalar sahnasini yaratishga, grafik organayzerlar tayyorlashga va shu asosida talabalarning og‘zaki nuqt ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Yuqorida ta‘kidlangan dasturlarning ayrimlari – Padlet, Mentimeter kabilar darsning asosiy qismida qo‘llansa, Kahoot, Quizzez, LockDown kabilar darsni ikkinchi qismida foydalanilishi mumkin.

MindMeister – idrok xaritasi (intellektual xarita) bir vaqtning o‘zida ham vosita, ham texnologiya sifatida foydalanish imkonini beruvchi dastur. Idrok xaritasini yaratish uchun, albatta, o‘qituvchi kompyuter texnologiyalarini juda yaxshi o‘zlashtirishi lozim. Bu xaritada Rashod Nuri Guntekin ijod yo‘li birin-ketin joylashgan. Xaritaning markazida taniqli yozuvchi Guntekin surati, atrofida asarlar surati aks etgan. Talabalarga bu suratlar ko‘rsatilganda, ular tomonidan asarlar tahlil qilinib, qaysi janrga mansub ekanligi topiladi. Bu vositaning qulayligi, talabalar aynan asar yoki kitobning muqovasidagi suratni ko‘rib ham tezroq idrok qiladi. Idrok natijasida xaritadan birin-ketin foydalanib, boshqa asarlarni ham qiyosiy tahlil qilib borish mumkin. Ushbu xaritada ko‘rsatilgan qisqa ma‘lumotlar haqida keyingi sahifalarda batafsil yoritib beriladi. Darsni shu tariqa boshlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur idrok xaritani yangi mavzuni o‘tishda va o‘tgan mavzularni takrorlashda qo‘llash mumkin. Idrok xaritasi talabalarda tasavvur qilish va fikrlarni tizimlashtirish, o‘tilayotgan mavzudagi bosh g‘oyalar yoki asosiy tushunchalarni izohlashga yordam beruvchi ikkilamchi g‘oyalar hamda tushunchalarni ajratish bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.



Ta‘kidlash joizki, idrok xaritasi namoyishlarni o‘tkazish, qaror qabul qilish, o‘z vaqtini rejalashtirish, katta miqdordagi ma‘lumotlarni esda saqlash, aqliy hujum bilan aloqador jarayonlarni tashkil etish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, murakkab loyihalarni ishlab chiqish, mustaqil ta‘lim, rivojlanish va shu kabi vazifalarni hal etishda ajoyib vosita



bo‘lib xizmat qiladi. Ozarbayjon adabiyotini jahon adabiyoti bilan bog‘liq holda o‘rgangan metodist olim A.Zeynalova shunday ta‘kidlagan edi: “Materialning etnografik, tarixiy, axloqiy va estetik jihatdan yangiligi o‘quvchilarni o‘ziga jalb qila bilishi va ularga katta tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishi bilan belgilanadi. Bu esa, ayniqsa, hozirgi paytda milliy o‘zlikni tiklash davrida g‘oyatda muhimdir” [3: 30].


Bundan tashqari, darsliklarda topshiriqlarning ifodali o‘qish, rollarga bo‘lib o‘qish, matni yod olish, matn mazmunini hikoya qilish, matn mazmunini qisqartirib hikoya qilish singari ko‘rinishlari mavjud. Ular o‘quvchilarning og‘zaki nutq malakalarini orttirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, darslikda taqdim etilgan matnlarni badiiy qimmatini, tarbiyaviy ahamiyatini, o‘quvchilarning yoshi, ruhiy imkoniyatlari, aqliy rivojlanish darajalarining mosligini hisobga olgan tahlillash ham o‘qituvchining e‘tibor markazidan chetda bo‘lmasligi darkor.

Padlet – bu virtual doska yordamida talabalarning darsga e‘tiborini oshirish uchun dasturiy vosita bo‘lib, badiiy asarni tahlil qilish jarayonida o‘z fikrlarini osongina ifodalash imkonini beradi. Padlet onlayn-elektron doska kabi ishlaydi, unda foydalanuvchilar muayyan matni, tasvirlarni, videolarni, hujjatlarni sahifaning istalgan o‘rniga joylashtirishlari mumkin. Bunda noutbuk, shaxsiy kompyuter, planshet yoki smartfon kabi ko‘plab texnik vositalardan foydalanish imkoni mavjud. O‘quv jarayonida Padlet dasturidan foydalanish talabalarning birgalikdagi o‘quv faoliyatini amalga oshirishlariga imkoniyat yaratib beradi.


O‘ziga xos jozibadorlik va ko‘p funktsionallik xususiyatlariga ega bo‘lgan dastur barcha uchun qulaydir. Mutaxassislar fikricha, ushbu platformadan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish talabalarning o‘z fikrini mustaqil bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zotan dastur – virtual va onlayn “axborotnoma” doskasi bo‘lib, u yerda talabalar va o‘qituvchilar o‘zaro hamkorlik qilishi, o‘zaro aloqani rivojlantirishi, turli tarmoqlar (havlolar) va tasvirlarni almashishlari mumkin. Demak, “Choliqushi” romani bilan bog‘liq mulohazalarni bir manzilga jamlab, birgalikda tahlil qilish, asar asosida suratga olingan film hamda musiqalarni ham umumiy doskaga joylash imkoniyati paydo bo‘ladi. Adabiyotshunos olim Sh.Normatovanning o‘rinli keltirganidek, “asar asosida suratga olingan filmga tayanish, undagi aktyorlar ijrosiga taqlid qilish va eng mashhur epizodlarni sahnalashtirish. ... Ikkinchi xil yondashuvda esa kutilmagan, ba‘zan uncha e‘tibor berilmaydigan epizodlarga murojaat qilish va mustaqil ravishda ssenariy yaratish” [1: 19] dars samaradorligini ta‘minlashda juda muhim.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar asosida QR kodlarini tayyorlash va dars mashg‘ulotlarida foydalanish talabalarga internet materiallari bilan ishlash uchun qulay sharoit yaratib beradi. Shtrix-kod yordamida mavzuga aloqador bo‘lgan qo‘shimcha ma‘lumotlarni ham taqdim qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Talabalar bu

orqali asarning tub mohiyatini anglab olishi hamda o'zining shaxsiy fikrini bayon qila olishi mumkin.



Rashod Nuri Guntekin ijodini o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotlar mobaynida **Plickers** dasturidan foydalanish ham dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. "Plickers – butun sinfning javoblarini darhol ko'rib chiqish va statistika to'plamini soddalashtiradigan dasturdir... Bundan tashqari, vaqt tejamliligiga erishiladi. Har bir talabaning daftarini tekshirib baholashga ehtiyoj sezilmaydi. Guruh va individual o'zlashtirish ko'rsatkichi bir necha daqiqa ichida ma'lum bo'ladi. Bir-birining yonidagi o'rtogidan ko'chirishga imkon bo'lmaydi" [5: 38]. Talabalar uchun bu jarayon qiziqarli o'yin tarzida amalga oshiriladi, keyingi safargacha yangi bilimlarni o'zlashtirishlariga motivatsiya paydo bo'ladi. Buning uchun sifatli kameraga ega smartfon, internet, kompyuter yoki noutbuk hamda televizor yoxud proyektor kerak bo'ladi. Dasturga talabalar ro'yxati va ularning imkoniyatlariga mos savollar, topshiriqlar noan'anaviy testlar shaklida kiritiladi. Savollar soni foydalanuvchi ixtiyoriga bog'liq, mavzu mohiyatini ochib beruvchi, muayyan xulosalarga yo'naltiruvchi savol-topshiriqlar televizor yoki proyektor orqali namoyish etiladi. Ekranda berilgan topshiriqqa javob aniqlangach, talabalar qo'llaridagi QR kod joylashtirilgan javoblar kartasini ko'rsatishadi. Bu kartalar oq va qora kvadratlar shaklidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ikki o'lchovli shtrix shaklida ifodalanadi. Ular maxsus qurilmalar yordamida o'qiladi.



Smartfon (telefon) kamerasi orqali o'qituvchi tomonidan talabalar fikriga ko'ra to'g'ri deb qabul qilingan javoblarni QR kodlari bilan ko'tarilgan kartalar tekshiriladi. Bunda har bir javob varaqasi – qog'oz kartalari o'quvchi yoki talabalar uchun unikal bo'ladi. Javoblar real vaqtda skanerdan o'tkaziladi, natijalar ma'lumotlar bazasida saqlanadi va bevosita mobil ilovada hamda saytda paydo bo'ladi. O'qituvchi to'g'ridan



to'g'ri skanerlash natijasida to'g'ri va noto'g'ri javoblar mualliflar egasi haqida ma'lumot oladi.

Ushbu dasturdan dars jarayonining qay darajada samaradorlikka erishilganini aniqlab olish uchun yangi mavzuning mustahkamlash qismida foydalanish o'rinlidir. Bu orqali o'qituvchi talabalarning mavzuga bog'liq tushunchalarni o'zlashtirishda murakkablik tug'ilgan o'rinlarini aniqlab oladi, mashg'ulot mobaynida ayni shu jihatlariga e'tibor bergan holda yondashadi. Dasturning yana bir afzalligi shundaki, guruh jamoasining javoblari orqali har bir talabaning o'zlashtirish darajasini foiz nisbatida aniqlab borish mumkin.

Xulosa (Conclusion). Umuman, Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatishda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishga yordam beradi. O'qituvchi bu jarayonda talabaning shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalarini shakllantirib, rivojlantirib boradi. Yuqorida keltirilgan zamonaviy metodlar talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini o'stirishga, raqobatbardosh, yetuk shaxs sifatida tarbiyalanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR (References):

1. Normatova Sh. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishda o'yin texnologiyalari // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2018. – № 6. – B. 19.
2. Залдинер М.А., Тодоров Л.В., Губина Ф.И. Методика преподавания русской литературы в старших классах национальной (узбекской) школы. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – В. 26.
3. Зейналова А. Методика преподавания азербайджанской литературы в русскоязычных школах (5-11-классы). Автореф. канд.пед.наук.. – Боку, 1992. – В. 30.
4. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: Фан, 2007. – В. 34.
5. Садуллаев И., Мухлисов С., Хазратов Ф. Использование интерактивных технологий plickers в процессе обучения // Ученый XXI века. Международный научный журнал. № 7 (54), июль 2019 г. – В. 38.